XALQ DEPUTATLARI PARKENT TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2025-yil 6-mart VII-8-32-10-141-K/25 Parkent tumani

Parkent tumanidagi mavjud geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligining 2025-yil 7-yanvardagi Toshkent viloyati hokimligiga kiritgan 03/08-189-sonli xati va xatga ilova qilingan O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligi, Geografik obyektlarga nom berish va ularni qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflarni davlat ekspertizasidan o‘tkazish ekspert komissiyasining 2025-yil 6-yanvardagi yig‘ilish bayoni va “Geografik ob’ektlarga nom berish va ularni qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflarning qonun hujjatlari talablariga muvofiqligi haqida”gi ekspert xulosalarini shuningdek, “Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari” bo‘yicha viloyat komissiyasining 2025-yil 13-yanvardagi 1/12-4-200-sonli yig‘ilish bayonlarini inobatga olib, O‘zbekiston Respublikasining 2011-yil 12-oktabrdagi “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi O‘RQ-303-sonli qonuniga, O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi qonunning 6 va 24-moddalariga muvofiq Xalq deputatlari Parkent tumani Kengashi

QAROR QILADI:

1. Parkent tumani hokimligi huzuridagi “Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha komissiyasi” raisining o‘rinbosari D.Azimboyevning hisoboti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligining 2025-yil 7-yanvardagi Toshkent viloyati hokimligiga kiritgan 03/08-189-sonli xati va xatga ilova qilingan O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligi, Geografik obyektlarga nom berish va ularni qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflarni davlat ekspertizasidan o‘tkazish ekspert komissiyasining 2025-yil 6-yanvardagi yig‘ilish bayoni va “Geografik ob’ektlarga nom berish va ularni qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflarning qonun hujjatlari talablariga muvofiqligi haqida”gi ekspert xulosasiga asosan tumandagi mahalla fuqarolari yig‘inlarida joylashgan geografik obyektlar (ko‘cha, maydon, istirohat bo‘g‘i, xiyobon, ziyoratgoh, qabriston) nomlari qonun hujjatlariga muvofiq deb topilgan nomlar ro‘yxati **ilovaga** asosan tasdiqlansin.

3. Tuman hokimining o‘rinbosari B.Soatov, tuman Ozbekiston Respublikasi Mahallalar uyushmasi Parkent tuman bo’limi (R.Tojiboyev) 1 oy muddatda ushbu qaror ilovasiga muvofiq tasdiqlangan ro‘yxat asosida nomi o’zgargan qabristonlarga ularning nomlari yozilgan metall ko‘rsatgich va belgilar, peshlavhalarni bosqichma bosqich o‘rnatish, almashtirish, barcha mahalla fuqarolar yig‘ini tizimidagi ish yurituv hujjatlarini mazkur qarorga muvofiqlashtirish va olib borilgan ishlar yuzasidan ma’lumotlarni belgilangan muddatda Parkent tumani hokimligi huzuridagi “Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha komissiyasi” (D.Azimboyev)ga taqdim etish vazifalari yuklatilsin.

4. Mazkur qaror bilan nomlari o‘zgartirilgan mozorlarning kadastr hujjatlarini qayta rasmiylashtirish, ro‘yxatga olish va boshqa turdagi davlat xizmatlari uchun davlat boji hamda to‘lovlar undirilmasdan qayta rasmiylashtirib berilishi ta’minlansin.

5. Mazkur qaror “Parkent tongi” gazetasida rasman e’lon qilinsin va hokimlikning rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin, ushbu qaror rasman e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

6. Ushbu qarorning ijrosini ta`minlash Parkent tumani hokimligi huzuridagi “Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha komissiyasi” raisining o‘rinbosari D.Azimboyev, hamda ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari tuman Kengashining Korrupsiyaga qarshi kurashish va xavfsizlik masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (X.Salimboyev) zimmalariga yuklatilsin.

Kengash raisi ISAKULOV SARDOR DADADJANOVICH

Xalq deputatlari Parkent tumani
Kengashining
2025-yil 6-martdagi
VII-8-32-10-141-K/25 -son qaroriga
1-ilova

Parkent tumani komissiyasi tomonidan taqdim etilgan Geografik obyektlarga nom berish yoki ularni qayta nomlash to'g'risidagi taklifga ekspert

XULOSASI

T/r	Geografik obyekt ning turi	Joylashgan o'rni	Geografik obyektning amaldagi nomi	Viloyat komissiyasi tomonidan berilgan taklif	Izoh
2.	Qabriston	Yangi Navbahor MFY	Nomsiz	Egamberdiot a	2014-yilda ochilgan qabristonni obod bo'lishida hamda mahallani infratuzilmasini yaxshilashda qo'shgan katta hissasi uchun va birinchi bo'lib dafn etilgan Egamberdi ota nomi bilan nomlangan
15.	Qabriston	Shampan MFY	Nomsiz	Fozilhoji	Shampan qishlog'ini qurilish va ta'mirlai ishlarida jonkuyarlik ko'rsatganligi, qabristonni obod bo'lishida hamda mahallani infratuzilmasini yaxshilashda qo'shgan katta hissasi uchun marhum Yunusov Fozilhoji nomini berish taklifi berildi.